

## Aqli kutubxona bo'yicha tajriba

Gottingen universitetining professori Yoxannes Rekkel aqli kutubxona bo'yicha tajribasini o'rtoqlashish uchun tashrif buyurdi. Professor Yo.Rekkel va institutning xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori A.Salohiddinov, axborot-resurs markazi direktori v.b. M.Axmedova va EkoGAT markazi rahbari A.Pulatovlar bilan TIQXMMIda smart library (aqli kutubxona)ni joriy etish bo'yicha muzokaralar olib borishdi. Muzokaralar so'ngida o'zaro hamkorlikda ishslash bo'yicha kelishib olindi.



So'ngra, institut kutubxona xodimlari va qiziqish bildirgan mehmonlarga aqli kutubxona yaratilish tarixi, buguni va istiqboli xususida taqdimot taqdim etildi. Taqdimot aqli kutubxonadan foydalanish tartibi, ma'lumotlar kiritish va ommaga taqdim etish usullari xususida batafsil tushuntirib berildi. Prof. Rekkelning taqdimoti ko'pchilikning diqqatini tortgani bois, ko'plab savol-javobga sabab bo'ldi. So'ngida kutubxona xodimlari sermazmun taqdimot uchun o'z minnatdorchiligi bildirishib, esdalik sovg'a ulashdi.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**